

## ASHTARXONIYLAR DAVRIDA MARKAZIY VA MAHALLIY HOKIMIYAT BOSHQARUVI

Fattullayev Farrux Fazliddin o‘g‘li  
BuxDu tadqiqotchisi

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Ashtarxoniyalar davrida Buxoroda markaziy va mahalliy hokimiyat boshqaruvi yuzasidan fikr-mulohazalar bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** jo‘ybor shayxlari, “Ubaydullanoma”, biri «Buxoro yer hujjatlari», Qo‘ng‘iroq, Mang‘it, Nayman, Do‘rmon.

Ashtarxoniyalar davrida davlat tizimi va boshqaruvi o‘z tuzilishi, mohiyati jihatidan shayboniyalar davridagidan deyarli farq qilmas edi. Davlatning ichki va tashqi siyosatiga doir masalalar rasman oliy hokimiyat boshlig‘i xon ixtiyori bilan hal qilinardi. Markaziy va mahalliy hokimiyat boshqaruvida ham shayboniyalar davrida amalda bo‘lgan lavozimlar saqlanib qolgan. Ashtarxoniyalar davrida saroy qutlovi davlat lavozimi joriy etilib, u davlat mablag‘i hissobiga amalga oshiriladigan qurilish, suv inshootlari barpo etish va obodonchilik ishlarini boshqargan. Buxoro xonligi ma’muriy jihatdan viloyatlarga, viloyatlar tumanlarga bo‘linib boshqarilgan. Viloyat hokimlari xon tomonidan tayinlangan<sup>1</sup>.

Harbiy sohada doimiy qudratli harbiy qo‘sish, markaziy harbiy qo‘mondonlikning yo‘qligi, qo‘sinning zaonaviy qurol-yarog‘lar, zambaraklar bilan ta’minlanmaganligi Buxoro xonligining harbiy jihatdan o‘ta zaiflashuviga olib keldi. Ashtarxoniyalar davrida yerga egalik qilishning, ilgarigi asrlarda amalda bo‘lganidek mulki sultoniy, xususiy mulk, vaqf yerlari shakllari mavjud edi. Mulki sultoniy davlat yerlari hisoblanib, undan keladigan daromad xon xazinasiga kelib tushardi. Davlat yerlaridan o‘sha joylarda yashagan dehqonlar foydalangan, ular yerni ishlatib, olingan hosildan xiroj solig‘i to‘laganlar<sup>2</sup>.

Xon tomonidan davlat yerlarini soliqqa tortmaslik sharti bilan yirik boylar va saroy amaldorlariga sotish hollari ham yuz berdi. Xususiy mulk egalari u yerlarda o‘zlari ishlamas edi, yersiz dehqonlarga ijara berib, ularni zo‘ravonlik bilan ishlatib, katta daromad olardilar. Diniy mahkamalarga mulki sultoniy hisobidan berilgan u yerlar, masjidlar, xonaqohlar, qabristonlar vaqf mulki hisoblanardi. Vaqf mulkidan

<sup>1</sup> Азamat Зиёб Ўзбек давлатчилиги тарихи: (энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). – Ташкент: Шарқ, 2001, - Б.86.

<sup>2</sup> To‘rayev H. Buxoro tarixi. O’quv qo’llanma. – Buxoro: Durdona, 2020. – B.78.

ham soliq olinmas edi<sup>1</sup>. Ko‘chmanchi chorvador qabilalar ham katta-katta yerkarni egallab, o‘troqlashib, dehqonchilik bilan shug‘ullanadigan bo‘ldilar. Natijada Qo‘ng‘iroq, Mang‘it, Nayman, Do‘rmon va boshqa aholi yashaydigan yirik manzilgohlar vujudga keldi. Barcha mulk shakllariga xos xususiyat shunda ediki, ularda yersiz kambag‘al dehqonlar ijara hisobiga mehnat qilganlar.

XVIII asrga oid ayrim manbalar Zarafshon va Farg‘ona vodiysidagi dehqonlarning o‘z yerlaridan qochib ketishi holatlari haqida ham ma’lumotlar beradi. Hukmdorlar soliq va o‘lponlarni o‘z vaqtida va doimiy yig‘ib olish uchun ham mamlakat iqtisodiètini ko‘tarishga harakat qilsalarda, bu harakatlar aksariyat hollarda samarasiz tugardi. XVII asrning boshlariga kelib ko‘plab sug‘oriladigan yerlar jo‘ybor shayxlariga berilgan. Shariat qonunlariga ko‘ra, suv sotilmasligi va sotib olinishi mumkin bo‘lmasa-da, boy amaldor va ruhoniy yer egalari sug‘orish kanallarining xo‘jayinlari edilar.

XVII asr 80-yillarining oxirlarida Xiva hukmdorlarining ko‘plab hujumlari natijasida kelib chiqqan suv ta’mnotinining buzilishi Ashtarkoniylar davlatidagi ko‘pgina viloyatlarda, ayniqsa, Samarqand, Qarshi, Farg‘ona viloyatlarida ocharchilikka sabab bo‘ldi. Manba tili bilan aytilganda, dehqonlarda tariq va bug‘doy noni yo‘q edi. Siyosiy beqarorlik va o‘zaro urushlar davom etib turgan og‘ir sharoitda ham dehqonlar o‘z xo‘jaliklarini davom ettirishga harakat qilganlar. Buxoro xonligining asosiy dehqonchilik hududi Zarafshon vohasi edi. So‘nggi o‘rta asrlar mualliflari boshqa viloyatlarda ham ekinlar va bog‘-rog‘lar mavjudligi haqida ma’lumotlar beradilar. Misol uchun, Farg‘onaning ajoyib bog‘lari va dalalari, Qarshining sug‘oriladigan yerlari, Toshkent vohasining tog‘li g‘allakor tumanlari, Termizning yaxshi qovunlari va g‘allasi, Shahrisabzning yaxshi hosil beruvchi yerlari haqida ma’lumotlar bor.

Ashtarkoniylarning davlat tizimi va ma’muriy boshqaruvi o‘z tuzilishi hamda mazmun - mohiyatiga ko‘ra, shayboniylar davri davlatchiligidan deyarli farq qilmas edi. Manbalarning ma’lumot berishicha XVII–XVIII asrning birinchi yarmi davlat boshqaruvida hokimiyat markazda ham viloyatlarda ham asosan bir idora – dargohda mujassamlashib borgan. Shunigdek, shayboniylar davrida bo‘lgani kabi ashtarkoniylar davrida ham davlat tizimida o‘troq turmush tarzi 395 an’analari bilan birga ayrim yarim ko‘chmanchilarga xos udumlar ham saqlanib qolgan. Bu davrda ham xon rasman oliy hokimiyat boshlig‘i bo‘lib, davlatdagi ichki va tashqi siyosatga bog‘liq barcha masalalar uning ixtiyori bilan hal etilgan.

Barcha oliy farmonlar xon tomonidan joriy etilib, uning nomidan tangalar zarb qilinar, xonning nomi xutbaga qo‘shib o‘qildi. Ammo, amaldagi boshqaruvda

<sup>1</sup> To‘rayev H. Buxoro tarixi. O‘quv qo‘llanma. – Buxoro: Durdona, 2020. –B.58.

ko‘pgina ashtarxoniy hukmdorlari saroydagi katta mavqega ega bo‘lgan amaldorlar hamda yirik ulamolar qo‘lida qo‘g‘irchoq edilar. Nodirmuhammad, Subxonqulixon, Ubaydullaxon kabi xonlar markaziy hokimiyat obro‘sini ko‘tarishga, beboshamirlar mavqeini cheklashga harakat qilgan bo‘lsalar-da, ularning bu harakatlari deyarli samara bermadi. Bu davrda markaziy davlat boshqaruvi saroy amaldorlari qo‘lida to‘plangan bo‘lsa, joylardagi mahalliy hokimiyat viloyat hokimlari ixtiyorida bo‘lgan.

Ashtarxoniyalar hukmronligi yillarida ham naqib, otaliq, parvonachi, dodxoh, devonbegi, qushbegi, chuhraboshi, yasovul, inoq, qurchi, harbiy qozi, harbiy mufti, eshikog‘aboshi, mirzaboshi, saroy kutubxonasi boshlig‘i, dasturxonchi kabi lavozimlar mavjud bo‘lgani ma’lum. Shu bilan birga ularning ayrimlarida sifatiy o‘zgarishlar yuz bergenini ham ta’kidlash lozimdir. A.Ziyo tadqiqotlariga ko‘ra, otaliqning vazifasi XVI asrda asosan joylardagi boshqaruv tizimi bilan bog‘liq bo‘lsa, ashtarxoniyalar davrida, ayniqsa Abdulazizzondan boshlab, otaliqning markazdagi mavqeyi kuchaya boshladи.

Masalan, Abdulazizzon Buxoro taxtiga chiqqach poytaxtdagi otaliq vazifasini o‘sha paytda eng kuchli mavqega ega bo‘lgan Yalangto‘shbiyga taklif qilgan. Otaliqning mavqeyi Subxonqulixon davrida ham baland bo‘lib, eng muhim harbiy ishlar (masalan, xivaliklarning Buxoroga tahdidini qaytarish, Xuroson yurishi) otaliqqa yuklatilgan. “Ubaydullanoma” asarida otaliqqa umdat al-umaro, ya’ni butun amirlar tabaqasining tayanchi degan ta’rif berilgan. Abulfayzxon davridagi otaliq mansabida bo‘lgan Hakimbiy va uning o‘g‘li Rahimbiylar juda katta mavqeyiga ega bo‘lib, ular oxir-oqibat sulola vakillaridan hokimiyatni butunlay tortib olishga muvaffaq bo‘ldilar. Ashtarxoniyalar, xususan Ubaydullaxon va Abulfayzxon davrlarida qo‘shbegi lavozimidagi amaldorlarning ham mavqeyi o‘sgan. Aniqrog‘i shu mansabdagi shaxsning mavqeyi ko‘tarilishi bilan u egallab turgan lavozimning ham ahamiyati yuksalgan.

Sharqshunos Anke fon Kyugelgen ma’lumotlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ashtarxoniyarning so‘nggi vakillari davlatni boshqarish, uni mustahkamlash va davlatning ichki hamda tashqi xavfsizligi masalalariga jiddiy e’tibor qaratmaganlar. Buning oqibatida joylardagi ichki siyosiy nizolarni hal etish va Eron davlati tomonidan bo‘lgan tashqi xavf oldida mamlakat ojiz bo‘lib qolgan edi. Shu bilan birga, obyektiv sabablar bilan bir qatorda, bizning fikrimizcha, mamlakatda bunday xavfli vaziyatning yuzaga kelishiga quyidagi uchta subyektiv omil va voqealar ham muayyan darajada o‘zining ta’sirini o‘tkazgan:

Birinchidan, xonlikning muhim hududiy markazlaridan biri hisoblangan hamda mamlakatning asosiy iqtisodiy, ma’rifiy va harbiy resurslari joylashgan Samarqand bekligini xonning asosiy raqiblaridan biri bo‘lgan Rajab Sulton boshqaruviga o‘tishi. Ikkinchidan, nomusulmon bo‘lgan jo‘ng‘orlar quvg‘inidan qochgan qozoq ulamolariga

nisbatan xon hokimiyati tomonidan yetarli e'tibor bo'lmanligi va buning oqibatida musulmonlar o'rtasida katta obro'ga ega bo'lgan ushbu ulamolarning yetti yil davomida sarson-sargardonchilikda bo'lishlari aholining xonga bo'lgan hurmate'tiborini yo'qolishiga olib kelgan; Uchinchidan, xonning bevosita yo'l qo'yib berishi natijasida Ibodullo xitoy va uning tarafdorlari tomonidan muqaddas qadamjo hisoblanadigan Xo'ja Bahovuddin xonaqosining vayron etilishi aholining kuchli norozilagini kelib chiqishiga sabab bo'lgan.

Binobarin, 1721–1722-yillarda Samarqandning Rajab Sulton boshqaruviiga o'tishi nafaqat Buxoro xonligiga qarshi qaratilgan g'alayon sifatida, balki mamlakat zaiflashuvining asosiy sabablaridan biri sifatida baholanadi. Qozoq va qoraqalpoqlarning 1723-yildan 1730-yilgacha davom etgan isyonining asosiy sababchilaridan biri ham Rajab Sultonning yaqin kishisi Shahrисabz hokimi Ibrohimbiy Kenagas edi. Buning oqibatida, Abulfayzxon va uning harbiy qo'shini isyonchi kuchlar oldida himoyasiz qolgan edi. Mamlakatda tinimsiz davom etayotgan g'alayonlar natijasi o'laroq hamda o'sha davrda ro'y bergen tabiiy ofatlar (surunkasiga uzoq muddat yomg'ir yog'ishi) sababli haydaladigan yerlarning dehqonchilik uchun yaroqsiz ahvolga kelishi va o'z navbatida aholining katta qismini Samarqand va Miyonqol hududlarini tark etishga majbur etgan.

Bu davrga oid yer huquqiga bag'ishlangan muhim manbalardan biri «Buxoro yer hujjatlari» to'plami bizgacha yetib kelgan. "Unda XVII–XIX asrlarda butun O'zbekiston hududidagi yerga egalik qilish va undan foydalanish tartibini ko'rsatuvchi qoidalar, davlat boshliqlarining bu boradagi farmonlari, sud hujjatlari haqida qimmatli ma'lumotlar beriladi. Hujjatlarda, jumladan, vaqf mulkini almashtirish, xususiy yer egaligi huquqining. davlat tomonidan buzilib turishi, g'alla uyumlarini muhrash va boshqa shu kabi yerga oid munosabatlar tartibga solinadi. Masalan, mulkning vaqfga aylanishi unga egalik qilish va uni tasarruf etishda muhim o'zgarishlar kelib chiqqan, ya'ni uni olish-sotish, almashtirish mumkin bo'lmay qolgan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Мұхаммаджанов Р. Неъматов Т. Бухоро ва Хиванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар. -Т.:Ўзбекистон ССР Фанлар Академияси,1957. - 224 б.
2. To'rayev H. Buxoro tarixi. O'quv qo'llanma. – Buxoro: Durdon, 2020. – B.78.